



## Universal Xalqaro Ilmiy Jurnal

Jurnalning bosh sahifasi: <https://universaljurnal.uz>

Universal International Scientific  
Journal

e-ISSN: [3060-4540 \(online\)](https://universaljurnal.uz)

Year: 2025 Issue: 2 Volume: 2

Published: 27.02.2025  
<https://universaljurnal.uz>



International indexes

GOOGLE SCHOLAR

CROSSREF (OAK BAZA)

ZENODO

OPEN AIRE

EUROPUB

RESEARCHGATE (OAK BAZA)

SJIF

### RESURSTEJAMKORLIK ASOSIDA MO'YNADAN TIKUV BUYUMLARINI ISHLAB CHIQRISHNI YARATISH USULLARI

**Azimova Madina Narzulloevna., Temirova Gulnoz Ibodovna., Tashpulatov Salix Shukurovich**  
Buxoro muhandislik – texnologiya instituti  
Uzbekistan  
[amikomjon@mail.ru](mailto:amikomjon@mail.ru)

**Annotatsiya:** Maqolada resurstejamkorlik asosida mo'ynadan tikuv buyumlarini ishlab chiqarishdagi asosiy usullar va texnologiyalar keltirilgan. Tikuv buyumlarini tayyorlash jarayonida resurslarni tejash, mahsulotlarning ishlab chiqarishdagi samaradorlikni oshirish, xarajatlarni qisqartirish va ekologik samaradorlikni ta'minlash haqida bayon qilingan.

**Kalit so'zlar:** mo'yna, resurstejamkorlik, avtomatlashtirish, robotlashtirish, dizayn, lazerli kesish, ekologik standartlar, ekologik samaradorlik.

**Аннотация:** В статье рассмотрены основные методы и технологические возможности производства изделий рукоделия на основе ресурсоеффективности. В процессе изготовления швейных изделий рассказывается об экономии ресурсов, повышении эффективности производства продукции, снижении затрат и обеспечении экологической эффективности.

**Ключевые слова:** мех, ресурсоеффективность, автоматизация, роботизация, дизайн, лазерная резка, экологические стандарты, экологическая эффективность.

**Abstract:** The article discusses the main methods and technological possibilities for the production of handicrafts based on resource efficiency. The garment manufacturing process talks about saving resources, increasing product efficiency, reducing costs and being environmentally efficient.

**Keywords:** fur, resource efficiency, automation, robotization, design, laser cutting, environmental standards, environmental efficiency.

**Language:** Uzbek

**Citation:** Azimova , S., Temirova , G., & Tashpulatov , S. (2025). METHODS FOR CREATING RESOURCE-EFFECTIVE FUR SEWING PRODUCTS. Universal International Scientific Journal, 2(2), 143–150. Retrieved from <https://universaljurnal.uz/index.php/jurnal/article/view/1457>

**Doi:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.14960540>

**Google scholar:** [https://scholar.google.com/citations?user=8u0c234q&hl=uz&as\\_surl=https://doi.org/10.5281/zenodo.14960540](https://scholar.google.com/citations?user=8u0c234q&hl=uz&as_surl=https://doi.org/10.5281/zenodo.14960540)

Bugungi kunda mamlakatimizda qorako‘lchilik tarmog‘i korxonalarini modernizatsiya qilish, ishlab chiqarish quvvatlarini texnik va texnologik jihatdan yangilash, o‘zbek qorako‘li brendini yaratish va dunyo miqyosida targ‘ib qilish, sohaning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish borasida keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda. Resurstejamkorlik asosida mo‘ynadan tikuv buyumlarini tayyorlash zamon talablariga javob beradigan, ishlab chiqarish jarayonini samarali tashkil etish va ekologik, iqtisodiy, ijtimoiy ko‘rsatkichlar bo‘yicha ustunliklarni ta‘minlashga qaratilgan muhim yo‘nalish hisoblanadi. Bu faoliyat turi nafaqat mamlakatning sanoat salohiyatini oshirish, balki milliy xom ashyo resurslaridan samarali foydalanish, ish o‘rinlari yaratish va ekologik jihatdan barqaror ishlab chiqarishni ta‘minlashga xizmat qiladi. Mo‘ynali kiyimlar doimo diqqat markazida bo‘lishini ta‘minlash uchun doimo zamonaviy texnologiyalarni o‘zlashtirish, yangi g‘oyalarni taklif qilish va ularni hayotda tadbiq qilish kerak bo‘ladi.

Mo‘ynadan tikuv buyumlarini tayyorlash – bu ko‘p asrlar davomida an‘anaviy hunar

bo‘lib kelgan, unda tirikchilikning turli jihatlarini, shu jumladan kiyim-kechak va uy-jihoz buyumlari tayyorlanadi. Mo‘ynadan tikish ishi yoki "mo‘ynachilik" deb ataladigan jarayonda har xil qo‘l ishi va texnikalar qo‘llaniladi.

Resurstejamkorlik asosida mo‘ynadan tikuv buyumlarini tayyorlash – bu zamonaviy ishlab chiqarishda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan jarayonlardan biri bo‘lib, o‘zida materiallarning samarali foydalanishini, ishlab chiqarishni optimallashtirishni va mahsulotlarning sifatini ta‘minlashni nazarda tutadi.

Bu jarayonning asosiy maqsadi, avvalambor, mo‘yna (ya‘ni, tirik hayvonlardan olingan terini) resurslarini etarli darajada va samarali ishlatishdir. Mo‘ynadan tikuv buyumlarini tayyorlashda turli xil mashinalar, texnologiyalar va usullardan foydalaniladi. Mo‘yna materiallarining ko‘pincha yuqori narxdagi va iste‘molchilar tomonidan qadrlanadigan xususiyatlarga ega bo‘lganligini inobatga olgan holda, ishlab chiqarish jarayonining har bir bosqichi diqqat bilan rejalashtirilishi zarur.

Mo'ynali kiyimlardan ishlab chiqarishning o'ziga xos xususiyatlari zamonaviy dizaynning badiiy texnikasi, mo'ynali mahsulotlar to'plami uchun majoziy echim yaratishda fan va texnologiya yutuqlarini o'z ichiga oladi. Hozirgi vaqtda dizaynerlar mo'ynali kiyimlarni shakllantirish bo'yicha o'z ishlarida an'anaviy bajarish texnikasi va yarim tayyor mo'ynali mahsulotlarni loyihalashning innovasion usullarini birlashtirmoqda.

Mo'ynadan tikuv buyumlarini tayyorlash jarayonida har bir qadamda resurslarni tejash, ulardan samarali foydalanish, ishlab chiqarishdagi barcha bosqichlarda qayta ishlash va chiqindilarni minimallashtirish muhim ahamiyatga ega. Resurslarni tejashning asosiy maqsadi - mahsulotlar hajmini ko'paytirish bilan birga, xomashyo va energiyani kam sarflash, ishlab chiqarish jarayonini optimizatsiya qilish va ekologik holatni yaxshilashdir. Mo'yna ishlab chiqarish jarayonida ishlatilgan uskunalarni zamonaviy, energiya tejovchi modellar bilan almashtirish. Bu elektr energiyasini kam sarflashga yordam beradi. Ishlab chiqarish uskunalari va jabhalarining samarali ishlashi uchun muntazam texnik xizmat ko'rsatish, ishlayotgan apparatlarni tozalash va ularning optimal ishlashini ta'minlash ham elektr energiyani tejashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bu amallarni qo'llash orqali mo'yna ishlab chiqarish jarayonida energiya sarfini kamaytirish va uskunalarning samarali ishlashi ta'minlanadi.

Bu mavzu bo'yicha amalga oshiriladigan tadqiqotlar va ishlab chiqarish usullari, resurslardan samarali foydalanishning qo'llanilishi, ekologik zarralar va ishlab

chiqarish jarayonini optimallashtirish yo'nalishlariga alohida e'tibor qaratilgan. Shu bilan birga, tikuv buyumlarini tayyorlashda zamonaviy texnologiyalar, yangi materiallar va innovasion yo'nalishlar kabi omillar ham hisobga olinishi zarur.


O'zbekistonda mo'ynadan tikuv buyumlarini tayyorlash, ya'ni mo'ynaga ishlov berish va uning asosida turli xil mahsulotlar (masalan, kurtka, palto, shapka, qo'lqop) yaratish, ahamiyatli sanoat tarmog'idir. Bu ish o'ziga xos ko'nikmalar va texnologiyalarni talab etadi, shuningdek, yuqori sifatli materiallar va dizaynerlik mahoratlari talab etiladi.

Mo'ynali kiyimlar doimo diqqat markazida bo'lishini ta'minlash uchun doimo zamonaviy texnologiyalarni o'zlashtirish, yangi g'oyalarni taklif qilish va ularni hayotga tadbiq etish kerak. Mo'ynali kiyimlarni ishlab chiqarishning o'ziga xos xususiyatlari zamonaviy dizaynning badiiy texnikasi mo'ynali mahsulotlar to'plami uchun majoziy echim yaratishda fan va texnologiya yutuqlarini uyg'unlashtirishni o'z ichiga oladi.

Bugungi kunda mo'ynadan tikuv buyumlarini tayyorlash an'anaviy usullar bilan zamonaviy texnologiyalarning qo'shilishi orqali yangi bosqichga ko'tarilgan.

Mo'ynadan tikuv buyumlarini ishlab chiqarishda resurstejamkorlik (resurslarni samarali ishlatish) asosida turli usullar va texnologiyalar qo'llaniladi. Bu usullar mahsulotlarning ishlab chiqarishdagi samaradorlikni oshirish, xarajatlarni qisqartirish va ekologik samaradorlikni ta'minlash maqsadida joriy etiladi. Quyida mo'ynadan tikuv buyumlarini ishlab chiqarishdagi asosiy usullar va texnologiyalar ko'rib chiqiladi:

Mo'ynadan tikuv buyumlarini ishlab chiqarishdagi asosiy usullar va texnologiyalar



## 1. Resurslardan samarali foydalanish:

Mo'ynadan optimal qoliplar bilan foydalanish: Mo'yna uchun maxsus ishlab chiqarilgan texnologiyalar, masalan, lazerli kesish usullari yoki avtomatlashtirilgan sistema orqali, mo'ynadan hech qanday isrofsiz samarali foydalanish. Qoldiqlarni qayta ishlash: Mo'yna ishlab chiqarish

jarayonida paydo bo'lgan qoldiqlar qayta ishlanib, yangi buyumlarga aylantiriladi.

Mo'yna juda qiyin bichiladigan materialdir, ayniqsa uning detallarni bichish murakkab jarayondir. Shuning uchun mo'ynalarni bichishda lazerli kesish uskunalaridan foydalaniladi.



1-rasm. Lazer yordamida kesilgan mo'ynalar

2. Avtomatlashtirilgan va robotlashtirilgan tizimlar:


Avtomatlashtirilgan tikuv mashinalari:

Bu mashinalar belgilangan shablonlar bo'yicha tez va aniq tikuvlar yasashga


imkoniyat beradi. Ular mahsulotning sifatini oshirishga yordam beradi va ishlab chiqarish sur'atini tezlashtiradi.

Robotlar va sun'iy intellektdan foydalanish: Robotlar mo'ynadan tikuv

buyumlarini ishlab chiqarish jarayonida insonning o'rnini bosib, ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi. Masalan, robotlar so'ngi tekshiruv va burishni samarali amalga oshiradi. Mo'yna ishlovi: Texnologiyaning



rivojlanishi bilan mo'yna ishlovi avtomatlashtirilgan. Mo'yna tayyorlash jarayonida yangi mashinalar va usullar qo'llaniladi, bu mo'ynani tez va samarali ishlov berishni ta'minlaydi.



## 2-rasm. Avtomatlashtirilgan tikuv mashinalari

### 3. Ekologik va energetik samaradorlik:

Qayta tiklanadigan energiya manbalari: Ishlab chiqarishda quyosh energiyasi yoki havo bilan ishlaydigan quvvat manbalari kabi qulay energiya manbalari ishlatilishi mumkin. Ekologik ishlov: Eng yangi ekologik tizimlar va tabiiy materiallar ishlatishga ahamiyat berilmoqda. Mo'yna tayyorlashda kimyoviy ishlovlardan ko'proq atrof-muhitga zararsiz usullar qo'llaniladi.

Energiyani tejash texnologiyalari: Mo'yna ishlab chiqarishda energiya sarfini kamaytirish uchun maxsus tizimlar va energiyani qayta ishlash usullari joriy qilinadi.

### 4. Texnologik jarayonlarni yaxshilash:

Tikuvchilikda 3D loyihalash – bu kiyim va tikuvchilik mahsulotlarini virtual muhitda yaratish, tahrirlash va test qilish imkonini beruvchi texnologiya. U an'anaviy chizmalar va namunaviy tikish jarayonlariga qaraganda tezroq va samaraliroq usul sanaladi. An'anaviy

qo'l chizmalari o'rniga raqamli shakllardan foydalaniladi.

Matoning simulyatsiyasi – Matoning og'irligi, egilishi va teksturasi realistik tarzda ko'rsatiladi. Bunday loyihalash usuli ekologik jihatdan ham juda samarali – qog'oz va mato sarfini kamaytiradi, chiqindilarni qisqartiradi.

3D texnologiyalaridan foydalanish: 3D modellar va chop etish usullari bilan mahsulotning qurilishini aniq belgilash, ishlab chiqarish jarayonini osonlashtiradi va mo'ynadan mahsulot ishlab chiqarishning samaradorligini oshiradi.

Kompyuterli dizayn (CAD): 3D modellar va kompyuterli dizayn dasturlari orqali mo'ynadan tikuv buyumlarining yangi va innovasion usullari ishlab chiqiladi. 3D texnologiyalari: 3D bosib chiqarish texnologiyalari mo'ynadan yoki uning o'rnini bosadigan materiallardan ko'proq aniq va murakkab dizaynlar yaratish imkonini bermoqda. Bu usullar bilan kiyimlar, mo'yna aksessuarlari va boshqa mahsulotlar tez va

samarali ravishda ishlab chiqariladi. 3D loyihalash modalar uylari, sport kiyimlari ishlab chiqaruvchilari va elektron tijorat

kompaniyalari uchun katta imkoniyatlar yaratadi.



### 3-rasm. Tikuv buyumlarini 3D modellash

5. Mo'ynadan tikuv buyumlarining dizayn va shaklini yaxshilash:

Mo'ynadan olib ishlangan dizayni yuqori sifatli va nafis bo'lishi uchun bir necha usullar qo'llaniladi, masalan, turli xil o'zgarishlarni o'tkazish, tekstura va hajmni maksimal darajada samarali qilish. Modul sistema yoki konstruktorlar: Bu sistema mahsulotlarning to'liqlik va qo'shimcha xususiyatlarini osonlashtiradi, resurslarni samarali foydalanishga yordam beradi. Mo'ynadan zamonaviy kiyimlar: Hozirgi kunda mo'ynadan tayyorlangan kiyimlar, palto, kurtkalar va aksessuarlar zamonaviy modalarga muvofiq bo'lib, yangi dizaynlar va ajratilgan detallar bilan bezatiladi. Mo'ynadan ishlangan buyumlar maxsus dizaynlarni yaratishda texnik va ijodiy jihatlarni birlashtiradi.

Mo'yna bilan kombinasiyalar: Zamonaviy mo'yna buyumlarida mo'yna va boshqa materiallar, masalan, terining,

maqsadli mato yoki sintetik materiallar bilan kombinasiyalari qo'llaniladi. Bu modani yangi qiyofadagi buyumlarni yaratishga imkon beradi.

Ushbu usullar resurslardan samarali foydalanish va ishlab chiqarishdagi qiyinchiliklarni engib o'tishga ko'mak beradi.

Mo'ynadan tayyorlangan buyumlar yangi ishlab chiqarish metodlari, yaxshilangan sifat nazorati va dizayn trendlari bilan o'zgarib bormoqda. Ushbu jarayondagi asosiy yo'nalishlar va yangiliklar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Energiya samaradorligi: Mo'ynadan buyumlar tayyorlashda energiya samaradorligiga ahamiyat berilmoqda. Buning natijasida mo'yna ishlovi va tikish jarayonlari ko'pincha ekologik va iqtisodiy jihatdan yangi usullar bilan ta'minlanadi.

Qiymatlar: Mo'ynadan tikuv mahsulotlari narxi ko'pincha yuqori bo'ladi, shuning uchun yozgi va qishki mo'yna buyumlari, aksessuarlar va maxsus buyumlar

bilan ko'proq xizmat ko'rsatiladi.

Barqarorlik: Hozirgi kunda modalar sanoatida ekologik mas'uliyatga jiddiy e'tibor qaratiladi. Mo'ynadan tayyorlangan buyumlar qo'llashda tabiiy resurslarni tejash va hayvonlar huquqlariga rioya qilishga qaratilgan choralar ko'rilmogda.

## Xulosa

O'zbekistonda bu sanoatning o'sishi bilan birga, mamlakatdagi an'anaviy xunarmandchilik va zamonaviy ishlab chiqarish texnologiyalari o'zaro aralashib, yuqori sifatli mo'ynadan ishlab chiqarilgan mahsulotlar xalqaro bozorlarda raqobatbardosh bo'lmoqda. Bugungi kunda mo'ynadan tikuv buyumlarini tayyorlash ustidagi ishlash texnologiyalari va ishlab chiqarish jarayonlari yanada rivojlanmogda. Mo'yna ishlovi, dizayn va ekologik standartlar o'zgargani sari, mo'ynadan bo'lgan buyumlar sanoati turli xil talablarga javob beradi, shu bilan birga, ekologik va iqtisodiy samaradorlikni ta'minlaydi. O'zbekistonda

mo'ynadan kiyimlar ishlab chiqarish sohasi, zamonaviy texnologiyalar va an'anaviy usullarning muvaffaqiyatli birlashmasi orqali rivojlanmogda. Bozor talablari va eksport imkoniyatlari hisobga olinganda, bu sohaning kelajagi juda yorqin va iqtisodiy ahamiyatga ega. Xulosa qilib aytganda, mo'yna ishlab chiqarish sohasi O'zbekistonda iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan tarmoqlardan biridir. Prezident qarorlari va farmonlari orqali ushbu sohani rivojlantirishga katta e'tibor qaratiladi. Ushbu qarorlar, asosyan, mahalliy ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlash, eksportni oshirish va texnologik modernizatsiyani amalga oshirishga qaratilgan. Bu bilan milliy iqtisodiyotda muvaffaqiyatli rivojlanishga erishish, ish o'rinlari yaratish va xalq farovonligini oshirishga yo'naltirilgan tadbirlar ko'riladi. Mo'yna ishlab chiqarishda resurslarni samarali sarflash, sifatli mahsulotlar tayyorlash va bunyodkorlikni ta'minlash uchun barcha sohalarda hamkorlik va investisiyalarni rag'batlantirish muhim ahamiyatga ega.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Қорақўлчилик тармоғини янада ривожлантириш бўйича қўшимча чора тadbirlar бўйича Ўзбекистон Кеспубликаси Президентининг қарори, 09.02.2021 йилдаги ПҚ-4989-сон

1. М.Н.Азимова. Роль плёнкаобразователей в формировании качества натуральных кож // Международная научная конференция, посвященная 135-летию со дня рождения профессора В.Е.Зотикова. Сборник научных трудов Часть 1 Москва, 2022. С.25-30

2. Ташпулатов С.Ш., Азимова М.Н., Субхонова И. Исследование адгезионных свойств меховых пакетов с использованием коллагенсодержащих материалов // Scientific progress, 2022. № 3(2). - с.157-168.

3. Разработка способа изготовления меховых изделий на основе ресурсосбережения // Universum: технические науки : электрон. научн. журн. Ташпулатов С.Ш. [и др.]. 2021. 11(92). URL: <https://7universum.com/ru/tech/archive/item/12555> (дата обращения: 14.09.2023).

4. Азимова, М. Н., Темирова, Г. И., & Ташпулатов, С. Ш. (2023). ПУТИ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ МЕТОДОВ ПРОЕКТИРОВАНИЯ И ТЕХНОЛОГИИ

ИЗГОТОВЛЕНИЯ МЕХОВЫХ ИЗДЕЛИЙ НА ОСНОВЕ РЕСУРСОЭФФЕКТИВНОСТИ. *Universum: технические науки*, (9-3 (114)), 22-26.

5. Азимова, М. Н. (2022). ДИЗАЙН И ИСКУССТВО СОВРЕМЕННОГО УЗБЕКИСТАНА. МОЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНАЯ КАРЬЕРА Учредители: Общество с ограниченной ответственностью "Моя профессиональная карьера", 1(33), 87-92.

6. Азимова, М. Н. (2022). ВЫШИТЫЕ УЗОРЫ И ЦВЕТЫ В УЗБЕКСКИХ НАЦИОНАЛЬНЫХ КОСТЮМАХ СОСТАВ И ИСТОРИЯ. In *Инновации и технологии к развитию теории современной моды*, "Мода (Материалы. Одежда. Дизайн. Аксессуары)", посвящённая Фёдору Максимовичу Пармону (pp. 176-179).

7. Темирова, Г. И. (2020). ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ СПОСОБОВ НАНЕСЕНИЯ И УКРЕПЛЕНИЯ ДЕКОРАТИВНЫХ ЭЛЕМЕНТОВ ИЗ НАТУРАЛЬНОГО МЕХА. *International Journal of Advanced Technology and Natural Sciences*, 1(2), 52-58.

8. AZIMOVA M., ERGASHEVA M. COMPOSITION AND MODERN STYLE //EURASIAN JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY. – 2019. – Т. 1. – №. 2.

9. Rajabova G. et al. Designing rational, multi-range flexible technological flows in the sewing industry //AIP Conference Proceedings. – AIP Publishing, 2022. – Т. 2467. – №. 1.

10. Гайбуллаева, Н. (2024). СПЕЦИАЛЬНАЯ ОДЕЖДА ДЛЯ РАБОТНИКОВ АГРОСАНОАТА: ОБЕСПЕЧЕНИЕ БЕЗОПАСНОСТИ И КОМФОРТА. PROBLEMS AND SOLUTIONS OF SCIENTIFIC AND INNOVATIVE RESEARCH, 1(6), 10-12.

11. Negmatovna, N. G., & Erkinovna, U. V. MEANING OF SPIRITUAL HERITAGE OF KHODJA ALI ROMITANIY. *International Journal of Early Childhood*, 14(03), 2022.

12. Temirova, G. I., Tashpulatov, S. S., & Cherunova, I. V. (2018). PRODUCTION TECHNOLOGY FROM NATURAL POWER ON THE FULL-TERMOLOGICAL TECHNOLOGY. In *The latest research in modern science: experience, traditions and innovations* (pp. 44-48).